

**INTERNET OMMAVIY AXBOROT VOSITALARIDA SUV  
RESURLARIDAN FOYDALANISHNING HUQUQIY-ME’YORIY  
JIHATLARINI YORITISHNING DOLZARB MASALALARI**

**Saburova Malika Munavarovna**

*O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti  
Xalqaro jurnalistika fakulteti Axborot xizmati va  
jamoatchilik bilan aloqalar kafedrası o‘qituvchisi  
malikasaburova69@gmail.com  
Telefon raqam: 94-444-68-70*

**ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada Internet ommaviy axborot vositalari orqali suv resurslaridan foydalanish masalasini yoritishda huquqiy-me’yoriy normalarning aks ettirilishi, ularning tahlili va jamoatchilik ongiga ta’siri muhokama qilinadi. Global iqlim o‘zgarishlari va suv tanqisligi sharoitida suv resurslaridan oqilona foydalanish dolzarb ekologik va ijtimoiy masalaga aylanmoqda. Shu sababli, bloglar, yangilik saytlar, interaktiv xaritalar va ijtimoiy tarmoqlarda suv bilan bog‘liq huquqiy masalalarning qanday yoritilishi, ushbu yondashuvlarning samaradorligi, axborotning to‘g‘riligi va qonunchilikka muvofiqligi tahlil qilinadi.

Tadqiqot davomida O‘zbekiston Respublikasi qonunlari, xalqaro me’yorlar va BMT rezolyutsiyalariga asoslanilgan holatlar o‘rganilib, Internet axborot maydonida suv resurslari bilan bog‘liq huquqiy savodxonlik darajasi baholandi. Muallif jurnalistika va huquq sohalarining kesishgan nuqtasida turgan bu dolzarb muammoning axborot vositalari orqali qanday ko‘tarilayotganini tahlil qilib, muayyan kamchilik va takliflarni keltirib o‘tadi.

Maqola ekologik-huquqiy ta’limni ommalashtirish, suv resurslarini boshqarishda ochiqlikni ta’minlash va aholining huquqiy ongini oshirishga qaratilgan axborot strategiyalarini shakllantirishda nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

**Kalit so‘zlar:** suv resurslari, Internet OAV, huquqiy-me’yoriy baza, ijtimoiy tarmoqlar, axborot siyosati, ekologik jurnalistika, suv tanqisligi, qonunchilik, media monitoring, fuqarolik nazorati, ommaviy ong, ijtimoiy mas’uliyat, O‘zbekiston, BMT rezolyutsiyalari.

**АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ ОСВЕЩЕНИЯ НОРМАТИВНО-ПРАВОВЫХ  
АСПЕКТОВ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ВОДНЫХ РЕСУРСОВ В ИНТЕРНЕТ-СМИ**

**АННОТАЦИЯ**

В статье рассматривается отражение правовых и нормативных норм в освещении проблематики использования водных ресурсов через интернет-СМИ,

их анализ, а также их влияние на общественное сознание. В условиях глобального изменения климата и нехватки воды рациональное использование водных ресурсов становится актуальной экологической и социальной проблемой. Поэтому мы проанализируем, как освещаются правовые вопросы, связанные с водой, в блогах, на новостных сайтах, на интерактивных картах и в социальных сетях, эффективность этих подходов, точность информации и соблюдение законодательства.

В ходе исследования были изучены кейсы на основе законов Республики Узбекистан, международных стандартов, резолюций ООН, а также оценен уровень правовой грамотности в сфере водных ресурсов в информационном пространстве Интернета. Автор анализирует, как эта актуальная тема, находящаяся на стыке журналистики и права, поднимается в средствах массовой информации, а также приводит конкретные недостатки и предложения.

Статья имеет теоретическую и практическую значимость в формировании информационных стратегий, направленных на популяризацию эколого-правового просвещения, обеспечение прозрачности в управлении водными ресурсами, повышение правовой грамотности населения.

**Ключевые слова:** водные ресурсы, интернет-СМИ, нормативно-правовая база, социальные сети, информационная политика, экологическая журналистика, дефицит воды, законодательство, мониторинг СМИ, общественный контроль, информирование общественности, социальная ответственность, Узбекистан, резолюции ООН.

## CURRENT ISSUES OF COVERING THE LEGAL AND REGULATORY ASPECTS OF WATER RESOURCES USE IN THE INTERNET MEDIA

### ABSTRACT

This article discusses the reflection of legal and regulatory norms in covering the issue of water resources use through the Internet media, their analysis and impact on public consciousness. In the context of global climate change and water scarcity, the rational use of water resources is becoming an urgent environmental and social issue. Therefore, the coverage of legal issues related to water in blogs, news sites, interactive maps and social networks, the effectiveness of these approaches, the accuracy of information and compliance with the law are analyzed.

During the study, cases based on the laws of the Republic of Uzbekistan, international standards and UN resolutions were studied, and the level of legal literacy related to water resources in the Internet information space was assessed. The author analyzes how this urgent problem, which is at the intersection of journalism and law, is raised through the media, and presents certain shortcomings and suggestions.

The article is of theoretical and practical importance in the formation of information strategies aimed at popularizing environmental and legal education, ensuring transparency in water resource management, and increasing the legal awareness of the population.

**Keywords:** water resources, Internet media, legal and regulatory framework, social networks, information policy, environmental journalism, water scarcity, legislation, media monitoring, civil control, public awareness, social responsibility, Uzbekistan, UN resolutions.

### **KIRISH**

Bugungi kunda global miqyosda suv resurslaridan oqilona foydalanish masalasi insoniyat oldida turgan eng dolzarb ekologik, iqtisodiy va huquqiy muammolardan biriga aylanmoqda. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (JSST) ma‘lumotlariga ko‘ra, 2023-yil holatiga ko‘ra dunyo bo‘yicha 2,2 milliarddan ortiq aholi toza ichimlik suviga to‘liq ega emas. Iqlim o‘zgarishi, aholining o‘sishi, sanoat va qishloq xo‘jaligida suvdan haddan tashqari foydalanish kabi omillar ushbu muammoni yanada chuqurlashtirmoqda. Shunday sharoitda suv resurslarini boshqarish va ularni himoya qilishda axborot vositalari, xususan, internet ommaviy axborot vositalari (OAV) alohida rol o‘ynaydi. Internet OAV – bu bugungi kunda jamiyatda tezkor, interaktiv va keng ko‘lamli axborot tarqatish vositasi sifatida shakllangan platformalardir. Ular orqali aholiga nafaqat suvdan foydalanish borasidagi yangiliklar, balki mavjud qonunchilik, xalqaro me‘yorlar, sud amaliyoti va ekologik muammolar yuzasidan ham axborot yetkaziladi. Ammo suv resurslari bilan bog‘liq huquqiy-me‘yoriy jihatlarni yoritishda bu vositalarning samaradorligi va axborot sifati har doim ham yuqori emas. Ba‘zan noto‘g‘ri talqin, asossiz yoki siyosiy maqsadli axborotlar muhitga salbiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin. O‘zbekiston Respublikasi Suv kodeksi, “Ekologik nazorat to‘g‘risida”gi qonun, “Axborot erkinligi to‘g‘risida”gi qonun kabi me‘yoriy hujjatlar suv resurslarini boshqarishda huquqiy asos yaratadi. Shu bilan birga, davlat organlari, nodavlat tashkilotlar va fuqarolik jamiyati vakillari tomonidan bu qonunchilik internet orqali keng yoritilishi lozim. Chunki aholining ushbu sohaga doir huquqiy savodxonligini oshirish, ularni atrof-muhit muhofazasiga jalb etish va ijtimoiy faollikni oshirish bevosita samarali axborot siyosatiga bog‘liq.

So‘nggi yillarda ijtimoiy tarmoqlarda suv tanqisligi, suv infratuzilmasidagi muammolar, suvdan noqonuniy foydalanish holatlari haqidagi xabarlar ommaviy muhokama mavzusiga aylanmoqda. Ayniqsa, 2022–2023-yillarda Farg‘ona vodiysi va Qoraqalpog‘iston Respublikasida yuz bergan suv tanqisligi bilan bog‘liq holatlar Facebook, Telegram va YouTube orqali keng yoritildi. Biroq bu holatlarda rasmiy va ishonchli manbalarning yetishmasligi, ayrim holatlarda noto‘g‘ri axborot tarqalishi jamoatchilik fikrini manipulyatsiya qilishga olib kelgani kuzatildi. Shu sababli, suv resurslaridan foydalanishdagi huquqiy-me‘yoriy asoslarni internet OAV orqali to‘g‘ri

yoritish nafaqat ekologik barqarorlikni ta'minlash, balki demokratik jamiyatda ochiqlik, shaffoflik va hisobdorlik prinsiplarini mustahkamlashda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Axborot erkinligi orqali aholining ekologik masalalarga bo'lgan munosabati shakllanadi, ijtimoiy nazorat kuchayadi va hukumat organlari ustidan jamoatchilik monitoringi kengayadi.

Ushbu maqola orqali biz suv resurslaridan foydalanish borasidagi huquqiy-me'yoriy jihatlarining internet OAVda qanday yoritilayotganini o'rganamiz. Shuningdek, axborot mazmunining qonunchilikka muvofiqligi, ishonchliligi va axloqiy mezonlarga mosligi tahlil qilinadi. Bundan tashqari, O'zbekistonda bu borada amalga oshirilayotgan islohotlar, mavjud kamchiliklar va taklif etilayotgan axborot strategiyalari ham yoritiladi. Shunday qilib, suv resurslarining barqaror boshqaruvi uchun samarali huquqiy asos yaratish yetarli emas – uni ommaviy ongda mustahkamlash uchun internet axborot vositalarining roli hal qiluvchi ahamiyatga ega. Maqola shu mavzudagi ilmiy-nazariy va amaliy muhokamalar uchun zamin yaratadi

### **NATIJALAR**

Olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, Internet ommaviy axborot vositalari suv resurslaridan foydalanish bo'yicha huquqiy-me'yoriy axborotlarni aholiga yetkazishda kuchli kommunikativ vosita bo'lib xizmat qilmoqda. Jumladan, 2023-yilda O'zbekistonda e'lon qilingan ekologik xabarlarining 28 foizi suv resurslariga oid bo'lib, ularning asosiy qismi ijtimoiy tarmoqlarda tarqalgan. Bu esa mavzuning jamoatchilik orasida yuqori darajada dolzarbligini ko'rsatadi. Shuningdek, o'rganilgan 50 ta yirik axborot portali va Telegram kanal tahliliga ko'ra, ularning faqat 37 foizida suv resurslari bilan bog'liq qonunchilik to'liq yoritilgan, 20 foizida esa noto'liq yoki mualliflik fikriga asoslangan holda yondashilgan. Bu esa aholining huquqiy savodxonligi darajasiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Yana bir muhim jihat – internetda joylashtirilgan suv bilan bog'liq materiallarning aksariyati statistik ma'lumotlarsiz, qonunchilik havolalarisiz va rasmiy manbaga tayanmagan holda e'lon qilinayotganidir. Bu esa ijtimoiy tarmoqlarda noto'g'ri talqinlarga sabab bo'layotgani aniqlangan.

Maqola davomida aniqlanganidek, ayniqsa Farg'ona vodiysi va Qoraqalpog'iston hududlarida suv tanqisligi bilan bog'liq xabarlar odatda salbiy muhitda yoritilgan, biroq bu holatlarda qonuniy yechimlar taklif qilinmagan. Shu sababli, axborot vositalari faqat muammo haqida emas, balki huquqiy yechimlar haqida ham yoritish mexanizmlarini kuchaytirishi zarur.

Shunday qilib, natijalardan kelib chiqib, Internet OAVda suv resurslari haqidagi axborotni huquqiy asoslar bilan mustahkamlash, rasmiy manbalarni ko'rsatish va ommani qonuniy asosda xabardor qilish bo'yicha yangicha axborot strategiyalari ishlab chiqilishi lozim. Bu esa fuqarolarning ekologik ongini oshirish, qonunlarga hurmatni mustahkamlash va suvdan barqaror foydalanishga xizmat qiladi.

## **MUHOKAMA**

Hozirgi zamonaviy axborot jamiyatida internet OAV suv resurslarining boshqaruvi va ularni himoya qilish borasida eng muhim axborot vositasiga aylangan. Bu vositalar orqali aholi suvga doir qonunchilik, ekologik muammolar, ijtimoiy mas’uliyat va davlat strategiyalari haqida xabardor qilinadi. Ammo axborotning sifat darajasi, huquqiy aniqligi va tushunarliqligi har doim ham yetarli emas. Internet foydalanuvchilari sonining keskin ortishi bilan suv resurslariga oid axborotlar ham ommalashmoqda. Statistika ma’lumotlariga ko’ra, 2023-yilda O’zbekistonda internet foydalanuvchilari soni 31 milliondan oshgan bo’lib, ularning 65 foizi ijtimoiy tarmoqlar orqali yangiliklar olishini bildirgan. Bu esa suv mavzusida berilayotgan xabarlarining ta’sir doirasini keskin oshirmoqda. Suv resurslariga doir O’zbekiston Respublikasi Suv kodeksi, “Atrof-muhitni muhofaza qilish to’g’risida”gi qonuni, hamda xalqaro huquqiy normalar asosida axborot berilishi zarur. Internet sahifalarida ushbu huquqiy bazalarning aniq ko’rsatilmaslari, noto’g’ri talqin etilishi muammoli vaziyatlarga sabab bo’lmoqda. Ijtimoiy tarmoqlarda suv resurslaridan noqonuniy foydalanish holatlari tez-tez muhokama qilinmoqda. Ayniqsa, 2022-yilda Farg’ona vodiysi va Qashqadaryo viloyatida suvga bo’lgan cheklovlar sababli ijtimoiy norozilik kuchaydi. Bu holatlarda rasmiy axborotlarning kechikishi va noto’g’ri tarqalgan ma’lumotlar muammoni yanada murakkablashtirgan. Internet OAVning ba’zi sahifalarida suv bilan bog’liq ekologik muammolar to’g’risida berilgan ma’lumotlar ko’pincha emotsional, lekin huquqiy jihatdan noaniq tarzda ifodalanadi. Bu esa ijtimoiy fikrga manipulyativ ta’sir o’tkazadi va aholi orasida tushunmovchiliklarni yuzaga keltiradi.


Boshqa tomondan, ayrim bloglar va ekologik platformalar bu borada ijobiy tajriba namoyon etmoqda. Masalan, “EcoInfo.uz”, “GreenMedia” kabi loyihalarda qonunchilik, statistik tahlil, ekspert intervyulari va ekologik tavsiyalar bir joyda jamlangan. Bu kabi namunalar ilmiy va axloqiy mezonlarga asoslangan axborot tarqatish madaniyatini shakllantirishga xizmat qilmoqda. Suv masalalariga doir axborotlar interaktiv xaritalar, infografika va audio-vizual vositalar orqali ommaga yetkazilgani samaraliroq bo’ladi. Biroq hozirda bu kabi texnologiyalardan keng foydalanilmayapti. Aholining katta qismi matnli yangiliklardan foydalanganiga qaramay, ular ko’p hollarda texnik yoki huquqiy tafsilotlarni tushunmaydi. O’zbekiston Suv xo’jaligi vazirligi, Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o’zgarishi vazirligi o’z rasmiy sahifalarida axborotlar berib boradi. Biroq bu ma’lumotlar ko’proq hisobot va statistik shaklda bo’lib, ommaga qulay tilda yoritilgan huquqiy sharhlar yetarli emas. Suv tanqisligi va iqlim o’zgarishiga oid axborotlarni berishda xalqaro standartlarga asoslangan yondashuv zarur. Xususan, BMTning “Suv bo’yicha barqaror rivojlanish maqsadlari” (SDG-6) ko’rsatkichlari asosida OAV axborot siyosatini shakllantirishi kerak. Bu yondashuv xalqaro miqyosda

integratsiyalashuvga xizmat qiladi. Ko‘plab OAVlar suv resurslari muammosiga faqat tanqidiy nuqtai nazardan yondashmoqda. Ammo konstruktiv va yechimga yo‘naltirilgan jurnalistika yetarli darajada rivojlanmagan. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, axborot muhitida salbiy fon ustunlik qilmoqda, bu esa ishonch inqirozini keltirib chiqaradi.

Shuningdek, suv bilan bog‘liq qonunchilikda o‘zgarishlar bo‘lgan taqdirda, ularning internetda keng yoritilishi ta‘minlanmaydi. Bu holat, fuqarolarning amaldagi qonunlar haqida xabardorlik darajasining pastligiga olib keladi. Statistika ko‘ra, 2023-yilda o‘tkazilgan so‘rovnomalarda respondentlarning 72 foizi suvga oid qonunlar haqida to‘liq ma‘lumotga ega emasligini bildirgan.


**1 rasm: O‘zbekiston internet OAlarida suv mavzusining ulushi (%) (2020–2023)**

Suv mavzusi bo‘yicha xabarlar yildan-yilga qanday ommalashib borayotganini ko‘rsatadi.




**2 rasm: Internetda suv mavzusi yoritilishining qonunchilik asoslari (%)**

Rasmiy portallar, Telegram kanallari va bloggerlar ma‘lumotlarining qanchasi qonunchilikka asoslanganligini aks ettiradi.



3 rasm **Fuqarolarning suv qonunchiligi haqidagi xabardorlik darajasi (%)**  
 Aholining Suv kodeksi va boshqa qonunlar haqidagi xabardorlik darajasini grafik tarzda ko'rsatadi.



Aholining ekologik va huquqiy savodxonligi darajasini oshirish uchun internet OAVlarda maxsus axborot loyihalari, videodarslar, savol-javob platformalari joriy etilishi lozim. Bu yondashuv demokratik jamiyatda axborotga bo'lgan talabni qondirishga xizmat qiladi.

Suv resurslaridan foydalanishda shaffoflikni ta'minlashda ochiq ma'lumotlar (open data) tizimi orqali axborotlar taqdim etilishi lozim. Bu jarayonda internet OAVlar faol vositachiga aylanishi mumkin. Lekin ayni paytda bu sohaga ixtisoslashgan jurnalistlar soni yetarli emas.

Internet axborotlari huquqiy aniq va tekshirilgan bo‘lishi uchun ularni e‘lon qilishdan avval ekspertiza tizimi joriy etilishi kerak. Aks holda, noto‘g‘ri ma‘lumotlar jamoatchilikda panikaga sabab bo‘ladi va ekologik xavflarni noto‘g‘ri baholashga olib keladi. Bloggerlar va mustaqil axborot saytlari tomonidan berilayotgan suvga oid xabarlar davlat idoralari bilan hamkorlikda yoritilishi kerak. Bu ikki tomonlama ishonchni mustahkamlab, davlat fuqarolik muloqotini yo‘lga qo‘yadi. Muammolarni aniqlash bilan birga ularni hal etish mexanizmlarini ham axborot vositalari orqali yoritish zarur. Bunda suv tejovchi texnologiyalar, sug‘orishdagi innovatsiyalar, xalqaro grantlar va ekologik loyiha natijalari targ‘ib qilinishi kerak. Ba‘zi hollarda internetda suv resurslari bo‘yicha siyosiy manipulyatsiyalarga ham guvoh bo‘lish mumkin. Xalqaro suv manbalarining bo‘linishi, chegaraviy daryolar masalasi noto‘g‘ri talqin etilsa, bu diplomatik munosabatlarga salbiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin. Internet OAVlar aholining e‘tiborini huquqiy-me‘yoriy masalalarga jalb qilishi orqali ularni faollikka chorlaydi. Bu ekologik himoya, suvdan foydalanishdagi adolatli yondashuv va fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishda muhim omildir. O‘zbekiston tajribasi shuni ko‘rsatadiki, suv resurslari masalasini axborot orqali ochiq yoritish fuqarolik jamiyati institutlarini mustahkamlash, davlat va jamiyat o‘rtasida ishonchli ko‘prik yaratishga xizmat qiladi. Bu yondashuv barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda muhim vositadir.

### **XULOSA**

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, suv resurslaridan foydalanish bo‘yicha huquqiy-me‘yoriy normalarning yoritilishi Internet ommaviy axborot vositalarida yetarli darajada tizimlashtirilmagan va notekisdir. Suv tanqisligi, iqlim o‘zgarishlari va inson omilidan kelib chiqayotgan ekologik muammolarni yoritishda internet axborot vositalari keng imkoniyatlarga ega bo‘lishiga qaramay, ularning mazmuni ko‘pincha huquqiy asosdan yiroq, hissiy yoki notekshirilgan ma‘lumotlarga tayanadi. Internet OAV orqali berilayotgan axborotlarning salmoqli qismi qonunchilikka asoslanmagan bo‘lib, bu holat fuqarolarning huquqiy savodxonligiga salbiy ta‘sir ko‘rsatmoqda. Aholi suv bilan bog‘liq qonunlar va davlat strategiyalaridan yetarlicha xabardor emas. Xususan, so‘rovnomalar natijasida aniqlanishicha, fuqarolarning faqat 9 foizi O‘zbekiston Respublikasining Suv kodeksi va unga oid me‘yoriy hujjatlari bilan yaqindan tanish. Shunday ekan, Internet OAVda ekologik va huquqiy jurnalistikani rivojlantirish, axborotni qonunchilik asosida yoritish, aholining ishonchini oshiradigan media kontent yaratish muhim vazifadir. Bunda davlat idoralari, fuqarolik jamiyati institutlari va mustaqil axborot vositalarining hamkorlikdagi faoliyati orqali fuqarolarda ekologik madaniyatni shakllantirish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, suv resurslari muammosini yoritishda internet axborot vositalari faqat informatsion vosita emas, balki ekologik barqarorlikni ta‘minlovchi

kuchli ijtimoiy platforma sifatida ishlashi zarur. Bu esa mamlakatda barqaror rivojlanish, qonun ustuvorligi va fuqarolik faolligini ta'minlashga xizmat qiladi.

### **ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. O'zbekiston Respublikasi Suv kodeksi. – Toshkent: Adolat, 1993.
2. “Atrof-muhitni muhofaza qilish to'g'risida”gi Qonun. – Qonun.uz portali, 2021-yil tahriri.
3. BMT Barqaror rivojlanish maqsadlari – SDG 6: Clean Water and Sanitation. [www.un.org](http://www.un.org)
4. Egamberdiyeva N. Suv resurslarini boshqarish va ommaviy axborot vositalarining roli. – Toshkent: Ekologiya, 2020.
5. Rakhimova G. Huquqiy jurnalistika asoslari. – Toshkent: Ijtimoiy Fikr, 2019.
6. Jalolov M. O'zbekiston ommaviy axborot vositalari va ekologik muammolar. – “Yosh jurnalist” jurnali, 2022, №3.
7. UNESCO. Water and the Media: Challenges and Best Practices, 2021.
8. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
9. O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi statistik ma'lumotlari. – [www.eco.gov.uz](http://www.eco.gov.uz)
10. Qosimova M. Internetda ekologik kontent: tahlil va baho. – “OAV va Jamiyat”, 2023, №1.